

Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasini boshqarishda shaxslararo munosabatlarning roli

Shaxnoza Elmurodovna Tursunova
Toshkent shahridagi Puchon universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasini boshqarish jarayonida shaxslararo munosabatlarning o'рни va ta'siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida rahbarning kommunikativ madaniyati, muloqot uslubi, psixologik yetukligi hamda jamoa a'zolari bilan konstruktiv munosabatlarni shakllantira olish qobiliyati boshqaruv samaradorligining asosiy omili sifatida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, pedagog, ta'lim-tarbiya, samaradorlik, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, nazorat, faoliya, takomillashtirish

The role of interpersonal relationships in managing a preschool educational organization team

Shakhnoza Elmurodovna Tursunova
Puchon University in Tashkent

Abstract: This article analyzes the role and influence of interpersonal relationships in the process of managing a preschool educational organization team from a scientific point of view. During the study, the communicative culture, communication style, psychological maturity of the leader and the ability to form constructive relationships with team members are shown as the main factors of management effectiveness.

Keywords: management, pedagogue, education, effectiveness, preschool educational organizations, control, activity, improvement

Kirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 30-sentabrdagi PQ3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul

qilindi va 1-ilova Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida nizom ishlab chiqildi. Nizomning 13-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish bo'yicha Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining tashkilotni boshqarish bo'yicha bandlari belgilab berilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida jamoa bilan ishlash jarayoni o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, pedagoglar faoliyatining motivatsiyasi, emotsional muhitning barqarorligi va ta'lim-tarbiya sifati ko'p jihatdan rahbarning shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'naltirish bilan belgilanadi. Maqolada shuningdek, jamoada ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish mexanizmlari, pedagoglar o'rtasida hamkorlik, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash kabi omillarning ta'lim jarayoniga bo'lgan ta'siri nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shaxslararo munosabatlarning boshqaruv madaniyati bilan uzviy bog'liqligi, jamoaning kasbiy faolligini oshirish, nizoli vaziyatlarni oldini olish va samarali kommunikatsiya strategiyalarini qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Natijada, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining interpersonal kompetensiyalari ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, yosh avlodning har tomonlama kamol topishida va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonning samaradorligi nafaqat ta'lim mazmuni, metodlar va texnologiyalarga, balki maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) jamoasi ichidagi shaxslararo munosabatlar sifati va ularni boshqarish darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Pedagogik jamoa a'zolari orasidagi psixologik muhit, o'zaro hurmat, ijtimoiy hamkorlik, kommunikativ madaniyatning mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shaxslararo munosabatlar nazariy jihatdan sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, G.Mayo, K.Levin, A.Maslou, L.Vygotskiy, K.Rogers kabi olimlarning ilmiy qarashlari ushbu masalaning nazariy asosini tashkil etadi. Ularning tadqiqotlarida rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasi, jamoa ichidagi munosabatlarni boshqarish, jamoaviy faollik va motivatsiya darajasining tashkilot samaradorligiga ta'siri alohida o'rganilgan. Zamonaviy MTT jamoasi ko'p komponentli tizim bo'lib, unda tarbiyachilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, tarbiyachi yordamchilari va boshqa xizmat ko'rsatish xodimlari ijtimoiy hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Bunday jamoada shaxslararo munosabatlarni boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, rahbarning kommunikativ yetukligi, boshqaruv malakasi va pedagogik liderlik xususiyatlarini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxslararo munosabatlar MTT faoliyatining strategik samaradorligini belgilovchi omillardan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida (2020–2025) MTTlarda psixologik qulay muhit yaratish, xodimlarning o'zaro munosabatlarini

yaxshilash, jamoaviy boshqaruv madaniyatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda quyidagi amaliy ishlar amalga oshirilgan:

- Pedagoglar o‘rtasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish treninglari: Muloqot madaniyati, nizolarni boshqarish, faol tinglash ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha respublika va hududiy treninglar o‘tkazilmoqda.

- MTT rahbarlari uchun yetakchilik va boshqaruv kompetensiyalari bo‘yicha malaka oshirish kurslari: “Pedagogik liderlik”, “Inson resurslarini boshqarish”, “Hamkorlik pedagogikasi” kabi modullar joriy etilgan.

- Jamoaviy monitoring tizimlarining yo‘lga qo‘yilishi: MTTlarda psixologik muhit, jamoa iqlimi va xodimlarning emotsional holatini baholash bo‘yicha anonim so‘rovnomalar amalda qo‘llanmoqda.

- Innovatsion boshqaruv texnologiyalarining tatbiqi: Jamoaviy muhokama metodlari, hamkorlikdagi qaror qabul qilish, loyiha asosida boshqaruv tizimlari joriy etilmoqda.

- Bolalar rivojlanishiga bog‘liq kompleks yondashuvlar: Tarbiyachilar, psixolog va ota-onalar o‘rtasida muntazam uchrashuvlar tashkil etilib, bola rivojlanishidagi muammolar va yutuqlar muhokama qilinadi. Bu amaliy tajribalar MTT jamoasida shaxslararo munosabatlar sifatini oshirgan, pedagoglar faolligi va motivatsiyasini ko‘tarishga yordam bergan.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkiloti jamoasini boshqarishda shaxslararo munosabatlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning sifat darajasi ta’lim jarayonining mazmuni va samaradorligini belgilovchi omillardan biridir. Ilmiy nazariyalar tahlili va amaliy tajribalar ko‘rsatadiki, jamoa ichida ijobiy psixologik iqlimning shakllanishi, o‘zaro ishonch, hurmat, hamkorlik va kommunikativ madaniyatning rivojlangan bo‘lishi rahbarlik faoliyatining muvaffaqiyatini oshiradi. Shuningdek, MTT rahbarining kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy-psixologik liderlik qobiliyati va jamoa bilan ishlashdagi moslashuvchan boshqaruv uslublari shaxslararo munosabatlarni samarali boshqarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jamoa ichidagi ijobiy munosabatlar tarbiyachilar faoliyatining sifatiga, innovatsion jarayonlarning joriy etilishiga va eng muhimi, bolalarning psixologik farovonligi va har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida MTTlarda shaxslararo munosabatlarni yanada takomillashtirish uchun rahbarlar va pedagoglar o‘rtasida muntazam treninglar, psixologik maslahatlar, ijtimoiy-psixologik monitoring tizimlarini joriy etish va jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni 595-sonli qonun.2019 yil 22-oktyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22-dekabrdaqi Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risidagi 802-sonli qarori.

3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan)., Toshkent 2022-yil

4. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V., Tolstikova Yu.V. va hokazo. Maktabgacha ta'lim ta'lim. Terminlar lug'ati / - M.: Ayris-press, 2005 .-- 400 b. - (Maktabgacha ta'lim va rivojlanish).

5. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish shartlar: Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uchun qo'llanma. - M.: Ventana-Graf, 2007 .- - 80 b. - (Kutubxona bolalar bog'chasi).

6. Pozdnyak L. V., Lyaschenko N. N. Maktabgacha ta'limni boshqarish: Darslik. stud uchun qo'llanma. ped. universitetlar. - 2-nashr, Stereotip. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2001 .-- 432 b.

7. Уришбаев Э. Э. У. Методика улучшения свойств дорожного битума с применением минерального порошка из природного сланца //Academy.–2020. – 2020. – Т. 12. – С. 63.

8. Уришбаев Э. Э. Ў. Иқлим таъсирида қопламада юзага келадиган нўқсонлар //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1178-1185.

9. Urishbayev E. E. O. G. L. Effect of mineral powder extracted from mountain ash on asphalt concrete mixtures //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 230-235.

10. COUNTRY T. L. I. N. O. U. R. МАМЛАКАТИМИЗДА ТРАНСПОРТ ЛОГИСТИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИГА БЕВОСИТА ТАЪСИРИ ВА МУАММОЛАРИ //Talqin va tadqiqotlar. – 2023.

11. Уришбаев Э. Э. Ў. Иқлим таъсирида қопламада юзага келадиган нўқсонлар //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1178-1185.

12. Urishbayev E. E. O. G. L. Direct effects on roads in the process of development of transport logistics in Uzbekistan //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 271-275.